



ACTIVE PARTICIPATION IN ELECTIONS – AN IMPORTANT CRITERION OF SOCIAL ACTIVITY AMONG YOUTH

Xudayberdi Ummataliyevich Axmadaliyev

Independent researcher

Andijan State Pedagogical Institute

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: elections, youth activity, social responsibility, civic duty, democracy, participation in social life, political culture.

Received: 08.08.25

Accepted: 09.08.25

Published: 10.08.25

Abstract: Elections are one of the important features of the democratic process. They ensure that citizens have the opportunity to choose their representatives. The election process also reflects the competition between political parties and movements. This article discusses these issues.

SAYLOVLARDAGI FAOL ISHTIROK – YOSHLARDAGI IJTIMOIIY FAOLLIKNING MUHIM MEZONI

Xudayberdi Ummataliyevich Axmadaliyev

Mustaqil izlanuvchisi

Andijon davlat pedagogika instituti

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: saylovlar, yoshlar faolligi, ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik burchi, demokratiya, jamiyat hayotida ishtirok etish, siyosiy madaniyat.

Annotatsiya: Saylovlar demokratik jarayonning muhim belgilaridan biridir. Ular fuqarolar o'z vakillarini tanlash imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Saylov jarayoni, shuningdek, siyosiy partiyalar va harakatlar o'rtasidagi raqobatni ham aks ettiradi. Ushbu maqlada shu haqda fikr yuritilgan.

АКТИВНОЕ УЧАСТИЕ В ВЫБОРАХ – ВАЖНЫЙ ПОКАЗАТЕЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

Худайберди Умматалиевич Ахмадалиев

Независимый исследователь

Анди́йского государственного педагогического института

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: выборы, активность молодежи, социальная ответственность, гражданский долг, демократия, участие в общественной жизни, политическая культура.

Аннотация: Выборы являются одним из важных признаков демократического процесса. Они обеспечивают гражданам возможность выбирать своих представителей. Избирательный процесс также отражает конкуренцию между политическими партиями и движениями. В данной статье рассматриваются эти вопросы.

Yosh avlodning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi ijtimoiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Ularning fikrlari va g'oyalari mamlakatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, yoshlarni siyosiy hayotga jalb qilish, ularning ovozlarini eshitish va ularga imkoniyatlar yaratish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda yoshlar siyosatiga qaratilgan e'tiborning ortishi, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan dasturlar va tashabbuslarni amalga oshirish orqali namoyon bo'ladi. Yoshlar uchun siyosiy ta'lim, treninglar, forumlar va boshqa tadbirlar o'tkazilishi, ularning fikrlarini bildirishlari va siyosiy jarayonlarda ishtirok etishlari uchun imkoniyatlar yaratish juda muhimdir.

“2016-yilning 14-sentabrida “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilingan edi. Ushbu qonun yillar davomida mavhum bo'lib kelgan huquqiy tushunchalarga aniqlik kiritish bilan birga, yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga ko'tarishda muhim omil bo'lmoqda. Ma'lumki, bugungi kunda yoshlar ijtimoiy jihatdan ham turlicha qarashlarga, turlicha dunyoqarashga, ijtimoiy maqomga ega qatlam (ishchi, tadbirkor, hunarmand, talaba, shaharlik, qishloqlik, tijoratchi, boy oilaga mansub, o'rta yoki kambag'alroq oilaga mansub va xokazo...) sifatida o'zlarining qatlamlashgan manfaatlariga ega. Shu nuqtai-nazardan siyosiy liderlar yoki deputatlikka nomzodlar ularga alohida ahamiyat qaratadi. Chunki, yoshlar juda katta siyosiy-ijtimoiy kuch sifatida qatlam sifatida siyosiy jarayonlar rivojiga va taqdiriga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, aynan yoshlar, katta yoshlilarga nisbatan mamlakatdagi siyosiy vaziyatga va o'zgarishlarga boshqacha munosabatda bo'ladi, boshqacha ta'sir ko'rsatadi va bu holat ilmiy isbotlangan”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z rahbarligining ilk kunlardayoq ta'kidlaganlaridek, “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” – deb aytib o'tganlar. “Yoshlarni qo'llab-

quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ularning bandligiga ko'maklashish, tadbirkorlik g'oya va tashabbuslarini rag'batlantirish, ular munosib daromad olishi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, bu borada olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqish, shuningdek, "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"dagi 38-50 maqsadlar" ning ijrosini ta'minlash maqsadidagi ushbu hujjat mamlakatimizda yosh avlodga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning amaldagi yana bir yorqin ifodasidir.

Saylovlarning bugungi kunda ahamiyati juda katta, chunki ular demokratiyaning asosiy mexanizmi sifatida jamiyatda adolat, tenglik va ishonchni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Saylovlar fuqarolarga o'z vakillarini tanlash imkonini beradi, bu esa mamlakatda fuqarolik huquqlari va erkinliklarining amalga oshirilishini ta'minlaydi. Saylovlar hukumatning qonuniyligini tasdiqlaydi. Agar hukumat saylov orqali tanlansa, u jamiyat tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi va buning natijasida uning qarorlari keng qamrovli qo'llab-quvvatlashga ega bo'ladi. Saylovlar hukumatni va uning rahbarlarini javobgar qilishning samarali usulidir. Saylovlar orqali fuqarolar o'zlarining siyosiy istaklarini ifoda etadi va rahbarlarni o'z ishlarini yanada yaxshilashga undaydi. Ochiq va adolatli saylovlar jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi, chunki ular fuqarolarning davlat ishlariga ishonchini oshiradi va ijtimoiy nizolarni oldini olishga yordam beradi. Saylovlar yangi siyosiy partiyalar va liderlarga imkoniyat yaratadi, bu esa jamiyatda yangi g'oyalar va islohotlarning amalga oshirilishiga olib kelishi mumkin. "Ovoz berish fuqarolik ishtirokining fundamental aktlaridan bo'lib, uning vositasida yoshlar demokratiyaga o'z hissasini qo'shadilar. Gurchi, bu jarayon yoshlarni siyosiy-ijtimoiy voqeliklarga jalb qilishning shakllaridan biri hisoblansada, u yoshlarga o'z ovozlari, pozitsiyalarini eshittirishga imkon beradi, jamiyatdagi muammolarini yechish uchun e'tiborni qaratish omili bo'ladi, hamda ishtirokning boshqa shakllari uchun boshlang'ich asos bo'la oladi".

O'zbekiston Respublikasida saylovlar bugungi kunda aniq va shaffof tartibda o'tkaziladi. 2024-yilga kelib, O'zbekiston saylov tizimi bir qancha islohotlardan o'tgan va fuqarolarning siyosiy ishtirokini ta'minlash uchun bir nechta qonuniy va texnologik o'zgartirishlar kiritilgan. Quyida O'zbekiston saylov tizimi va uning tartibi haqida asosiy ma'lumotlar keltirilgan: O'zbekiston fuqarolarining saylovda ishtirok etish huquqi 18 yoshga yetgan har bir shaxsga berilgan. Saylovlar faqat yurtimizning doimiy aholisi uchun amal qiladi. Fuqarolar ovoz berishda erkin va to'liq ishtirok etish huquqiga ega. Ovoz berish jarayoni maxfiy bo'lib, fuqarolar o'z tanlovini ochiq-oydin bildiradilar. O'zbekistonda uchta asosiy saylov turi mavjud: Prezident saylovlari 5 yilda bir marta o'tkaziladi va O'zbekiston Prezidenti bir martalik to'liq muddatga saylanadi. Parlament saylovlari: O'zbekiston Oliy Majlisi (quyi va yuqori palatasi) a'zolarini tanlash uchun har besh yilda saylovlar o'tkaziladi. Mahalliy hokimlar va xalq deputatlari saylovlari viloyat, tuman va shahar darajasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Prezidentini xalq ovozi asosida, to'liq bevosita Referendum va saylovning o'rtasida ba'zi muhim farqlar mavjud. Ular ikki xil siyosiy jarayon bo'lib, maqsadlari va usullari jihatidan farq qiladi. Quyida ularning asosiy farqlari keltirilgan: Saylovda fuqarolar o'z vakillarini yoki rahbarlarini tanlash uchun ovoz berishadi. Saylovlar odatda parlament, prezident yoki mahalliy boshqaruv organlarini tanlash uchun o'tkaziladi. Ya'ni, saylovda fuqarolar siyosiy vakillarni yoki hukumatning ijrochi organlarini tanlaydilar. Referendumda fuqarolar aniq bir siyosiy yoki huquqiy masala bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri qaror qabul qiladilar. Bu, asosan, konstitutsiyaviy o'zgartirishlar, yangi qonunlarni qabul qilish yoki davlat siyosatining muhim yo'nalishlari haqida qarorlar qabul qilishda ishlatiladi. Referendumda fuqarolar biror masala bo'yicha "ha" yoki "yo'q" deb javob berishadi. Saylovda fuqarolar o'z vakillarini yoki rahbarlarini tanlaydi, ya'ni saylov ishtirokchilari siyosiy partiyalar yoki nomzodlar orasidan tanlov qilishadi. Odatda, saylovda nomzodlar ko'p bo'ladi va har bir fuqaroga bir yoki bir nechta nomzodlarga ovoz berish huquqi beriladi. Referendumda ishtirokchilarning barchasi bir xil savolga javob berishadi, ya'ni biror qonun yoki siyosatga ruxsat berish yoki bermaslik haqida qaror qabul qiladilar. Bu jarayonda faqat bitta masala bo'yicha ovoz beriladi. Saylovda ovoz berish jarayoni nomzodlar orasidan birini yoki bir nechta vakillarni tanlashni o'z ichiga oladi.

Odatda saylovlar bir nechta bosqichlardan iborat bo'ladi, masalan, nomzodlarni ro'yxatdan o'tkazish, saylov kampaniyalari va ovoz berish jarayoni. Referendumda faqat bitta masala bo'yicha ovoz berish jarayoni o'tkaziladi. Bu masala, ko'pincha, umumiy qaror sifatida xalqqa taqdim etiladi va to'g'ridan-to'g'ri xalq tomonidan hal qilinadi. Saylovda chiqariladigan qaror, odatda, yangi vakillarni yoki rahbarlarni tanlash bilan bog'liq. Natijada saylangan shaxslar yoki partiyalar hukumatni shakllantiradi. Referendumda fuqarolar ko'rsatilgan masala bo'yicha qaror qabul qiladilar, ya'ni fuqarolar qonun yoki siyosatning tasdiqlanishi yoki rad etilishi haqida qaror qabul qilishadi. Saylovlar odatda muntazam ravishda o'tkaziladi (masalan, har 4-5 yilda bir marta) va ko'pincha joriy hukumatni yoki boshqaruvni yangilash maqsadida o'tkaziladi. Referendumlar, odatda, ma'lum bir siyosiy yoki huquqiy masala yuzasidan bir martalik jarayon sifatida o'tkaziladi. Ular saylovlar kabi muntazam bo'lmaydi va faqat zarur hollarda, masalan, konstitutsiyaviy o'zgarishlar kiritilayotganda o'tkaziladi.

Yosh avlod vakillarining, ayniqsa, qishloq yoshlarining bilim olishi, ilm-fanga e'tiborini kuchaytirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun yanada keng sharoit yaratish doimiy e'tibor talab qiladigan ustuvor vazifalardan biridir. Yoshlarga oid davlat siyosatini tizimli va muntazam amalga oshirish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi, yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilishga qaratilgan Yoshlar akademiyasi tuzildi. 830 dan ortiq o'g'il-qizlar manfaatlarini himoya qiladigan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Yoshlar bilan bog'liq masalalarni parlamentda

muhokama qilish, parlament a'zolarining yoshlar masalalariga alohida e'tiborini kuchaytirish uchun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati huzurida "Yoshlar parlamenti" faoliyat olib bormoqda. Siyosiy platforma bo'lib xizmat qiluvchi bu maslahat organi yoshlarga parlament faoliyatini bevosita kuzatish, qonun ijodkorligi jarayoniga ularni jalb qilish, yoshlar orasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, yigit-qizlarni o'ylantirayotgan muammolarni o'zlari ishtirokida hal qilish, salohiyatli yosh kadrlarni qo'llab-quvvatlash va davlat fuqarolik xizmatiga tayyorlash, yurt taqdiriga daxldorlik hissini shakllantirish va davlat boshqaruvidagi salohiyatini oshirishda muhim omil bo'ladi. Yoshlarga qaratilgan davlat siyosatini uzluksiz, samarali hamda zamon talablariga uyg'un tarzda amalga oshirish maqsadida qator hujjatlar qabul qilinmoqda.

"Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor, jamiyat hayotining turli sohalarida yaratilayotgan sharoitlar, o'z salohiyatini yuzaga chiqarishi va hayotda o'z o'rnini topishiga qaratilgan, xususan, imkon qadar ko'p yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish, iqtidorli yosh mutaxassislarining nufuzli xorijiy ta'lim, ilmiy va boshqa muassasalarda bilim olishi, ijtimoiy muhofazaga muhtoj yoshlarni himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, kadrlarni tanlash va ularning malakasini oshirish kabi qator tadbirlar belgilangan. Yoshlarning bandligiga ko'maklashish va iqtidorli yoshlar orasidan yangi avlod zaxira kadrlarini shakllantirishga, ularni ilm-fanga keng jalb qilish, iqtidorli yoshlarning g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan choralar "O'zbekiston yoshlari va talabalari forumida yoshlarga oid davlat siyosati sohasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi"dan ham o'rin oldi.

"Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar – 2030" strategiyasidan kelib chiqib, yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlarini belgilovchi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham salohiyatli yosh kadrlarni qo'llab-quvvatlash va davlat fuqarolik xizmatiga tayyorlash, mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash, ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlar jamoat tashkilotlari va volontyorlik harakatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlar o'rin olgan. Bu tadbirlarning amalga oshirilishi yosh avlodda mustaqil ravishda qaror qabul qilish va o'z mas'uliyati doirasida javobgarlik hissini yanada orttiradi. Fuqarolarning siyosiy va huquqiy bilimini oshirish bo'yicha tizimli ishlarning olib borilishi ularning saylovlarda faol ishtirok etishiga turtki, o'zlari uchun munosib tanlovni amalga oshirishda yordam beradi. Saylov institutlari, ommaviy axborot vositalari tomonidan shakllantirilib boriladigan elektoral madaniyat jamiyat madaniyatining ajralmas bo'lagi. Yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirish, saylov bo'yicha barqaror bilim va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan tadbirlarda noan'anaviy, yangi

uslublarni qo'llash, yoshlarni e'tiborini jalb qila oladigan shakllardan foydalanish, innovatsion yondashuvlar asosida olib borish yuqori samara beradi".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Бондарь Н.Н. Молодежь и выборы. ОБЩЕСТВО И ПРАВО 2011 No 4 (36). С 91.
- 2.Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: “Ўзбекистон”, 2016. -Б. 14.
- 3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги “2022 —2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги ПФ-60-сон Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063#5843878>
- 4.Broadening Youth Voting. <https://circle.tufts.edu/our-research/broadening-youth-voting>
- 5.<https://saylov.uz/oz/m-pages/saylovda-yoshlarning-ishtiroki>
- 6.<https://lex.uz/docs/-5234746?ONDATE2=19.01.2021&action=compare>